



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# **M**AKTABGACHA VA **MAKTAB TA'LIMI**

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 268 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori  
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Umarova H. O'.** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G' B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F.O.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – doctor of philosophy (PhD) in psychology

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari .....	16
<b>Doniyorov Salim Musurmonovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
<b>Nazarov Odil Omanqulovich</b>	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	27
<b>Abirova Umida Nazarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati.....	30
<b>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</b>	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	34
<b>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati .....	38
<b>Salimova Dilmira Farxodovna</b>	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	41
<b>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</b>	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
<b>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</b>	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	48
<b>E. Po'latova</b>	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
<b>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</b>	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
<b>G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li</b>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	60
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	63
<b>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</b>	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	67
<b>Nomozova Dilobar Suyun qizi</b>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar .....	72
<b>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</b>	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	75
<b>Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li</b>	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature .....	80
<b>Ruzieva Maftuna</b>	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
<b>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</b>	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
<b>Sharipova Hakima Shavkatovna</b>	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	92
<b>Turayeva Nazira Ibragimovna</b>	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	95
<b>Меденцева Наталья Петровна</b>	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	100
<b>Jonibekov Jasur Jonibekovich</b>	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
<b>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</b>	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
<b>Bakayev Najmiddin</b>	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
<b>Egamova Madina Qobil qizi</b>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
<b>Egamova Shukriya Amanovna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari .....	119
<b>G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi</b>	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish .....	124
<b>G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich</b>	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	128
<b>Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
<b>Ikromova Munisa Sheraliyevna</b>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari .....	134
<b>Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna</b>	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar .....	138
<b>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	141
<b>Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna</b>	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi .....	145
<b>Kiyamova Maxbuba Sultanovna</b>	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari .....	148
<b>Mamadiyrov Jamol</b>	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
<b>Sharipova Firuza Mehriddinovna</b>	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli .....	155
<b>Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li</b>	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
<b>Xallokova Maksudaxon Ergashevna</b>	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
<b>Xatamova Ferangiz Ibodulloevna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi .....	166
<b>Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna</b>	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
<b>Yodgorova Gulrux Farhodovna</b>	
Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
<b>Юлдашев Эргаш Сабинович</b>	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
<b>Kudenov Temurbek Maxsetbaevich</b>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida.....	180
<b>Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna</b>	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar .....	185
<b>Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi</b>	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes.....	189
<b>Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli</b>	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari .....	192
<b>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</b>	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
<b>Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</b>	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik .....	201
<b>Adilova Zulfiya Djavdatovna</b>	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni .....	204
<b>Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</b>	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach .....	207
<b>Abdukhaliyeva Feruzaxon Ulugbek kizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
<b>Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</b>	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti .....	214
<b>Aripova Sayida Abdalaxatovna</b>	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi .....	217
<b>Rasuljon Atamuratov</b>	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
<b>Azizova Shodiya Utkur qizi</b>	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari .....	224
<b>Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</b>	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
<b>Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</b>	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar .....	232
<b>Ochilova Sarvinoz Salim qizi</b>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari .....	236
<b>Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</b>	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
<b>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....	242
<b>Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli .....	245
<b>Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</b>	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni .....	248
<b>Umirova Guldona Jamoliddin qizi</b>	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari .....	251
<b>Ungalov Akmal Navruzovich</b>	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi .....	254
<b>Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</b>	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati .....	257
<b>Xamrakuov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</b>	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
<b>Yuldasheva Mastura Islamovna</b>	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира .....	263
<b>Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</b>	



## BADIIY TARJIMADA LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna  
SamDCHTI o'qituvchisi

ORCID: 0009-0008-7677-8149

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy tarjima, lingvomadaniyat, leksik ma'no tushunchalari atroflicha o'rganilib, o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan "Dunyoning ishlari" qissasida qo'llanilgan lingvomadaniy xususiyatga ega leksik birliklarning asliyat va tarjima matnlarida ifodalangan o'ziga xos xususiyatlari tarjima tahlili asosida bir necha misollar orqali yoritib beriladi. Tahlilda keltirilgan misollarga izoh beriladi, shuningdek, ba'zi hollarda tarjima matniga xos ekvivalent leksik birliklar tavsiya etiladi. Quyida tarjimada til birliklarini atroflicha o'rganish lingvomadaniy tahlil jarayonida katta ahamiyatga ega ekanligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy tarjima, lingvomadaniyat, muqobillik, leksik birliklar, badiiy romanlar, lisoniy birliklar, til vositalari.

**Abstract:** This article provides a comprehensive examination of the concepts of literary translation, linguistic and cultural studies, and lexical meaning. It analyzes culturally bound lexical units used in the translation of the short story "The Affairs of the World" from Uzbek into English, highlighting their distinctive features in both the original and translated texts. Several examples are provided and commented on, and in some cases, equivalent lexical units are suggested for the translated version. The paper emphasizes the importance of linguistic and cultural analysis in the study of language units during the translation process.

**Key words:** literary translation, linguistic and cultural studies, equivalence, lexical units, literary prose, linguistic units, language means.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне рассматриваются понятия художественного перевода, лингвокультурологии и лексического значения. На основе анализа перевода повести "Дела мира" с узбекского на английский язык исследуются лексические единицы с лингвокультурной спецификой, их особенности в оригинальном и переводном текстах. Приводятся примеры, анализируются случаи использования, а также даются рекомендации по эквивалентным лексическим единицам в переводе. Особое внимание уделено значению лингвокультурного анализа при изучении языковых единиц в процессе перевода.

**Ключевые слова:** художественный перевод, лингвокультурология, эквивалентность, лексические единицы, художественные романы, языковые единицы, языковые средства.

### KIRISH

Tarjima jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik bilan ham uzviy bog'liq murakkab ijodiy faoliyat sanaladi. Ayniqsa, badiiy tarjima – bu ikki xalq madaniyati, estetik qadriyatlar va milliy tafakkuri o'rtasidagi ko'prikdir. Badiiy matnlarda uchraydigan leksik birliklar o'zida nafaqat tilning so'z boyligini, balki xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati, dunyoqarashi va madaniy stereotiplarini ham mujassamlashtiradi. Shu bois ularning tarjimasini lingvomadaniy jihatdan nihoyatda mas'uliyatli yondashuvni talab etadi. Mazkur maqolada badiiy tarjimada leksik birliklarni lingvomadaniy aspektda tahlil qilish zarurati asoslab beriladi, ularning tarjimada to'g'ri talqin qilinishi uchun muhim omillar o'rganiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyada N.N. Amosova va A.V. Kunin ingliz frazeologizmlarini tarixiy, nazariy-lingvistik aspektda o'rgangan. A.V. Kunin asarlarida leksik birliklar uch turdagi turg'un iboralarga – ya'ni idiomatika, idiofrazematika, frazeomatika kabilarga bo'linishi ta'kidlangan.

O'zbekistonda badiiy tarjimashunoslik o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bugungi kunda bevosita badiiy tarjima qilish va uning asosida tarjimashunoslik taraqqiyot etib bormoqda. Mamlakatimizda badiiy tarjima



xususiyatlariga oid G'. Salomov, S. Mamajonov, N. Komilov, J. Sharipov, N. Vladimirova, E. Ochilov, Yu. Po'latov, I. G'ofurov, O. Mo'minov, A. Rashidov, R. Turg'unova, Z. Alimova, N. Qambarov, X. Hamidov, M. Xolbekov, Sh. Safarov, X. Do'stmuhammad, Ya. Egamova, Sh. Karimov, X. Rahimov, Z. Isomiddinov, R. Fayzullayeva, Yo. Hamroyev, L. Husainova, A. Tursunov, G. Mahmudov, B. Ermatov, X. Ismoilov, K. Jo'rayev, F. Saidov, N. Otajonov, R. Shirinova, R. Karimov, Sh. Isoqova, Sh. Abdullayev, N. Isamuhamedova kabi olimlarning izlanishlari, xususan ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalarga doir Q. Musayev, M. Baqoyeva, S. Shukrullayeva, N. G'iyosov, S. Sobirov, Q. Siddiqov kabilarning tadqiqotlari soha rivojiga xizmat qilgan.

Ilmiy-texnikaviy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyot bosqichida xorijiy til dunyo bo'ylab turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sababli, bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlaridagi olimlar tezkor ma'lumot almashish va qo'shma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lib, ushbu aloqa vositalari tufayli zamonaviy ilm-fan misli ko'rilmagan natijalarga erishmoqda. Bunday sharoitda ko'pgina ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ilmiy adabiyotlarning yuqori sifatli tarjimasiga ehtiyoj sezilarli darajada oshib bormoqda. Tarjimonlar esa ilmiy adabiyotlar tarjimalarini doimiy ravishda o'zining so'z boyligiga qo'shib borishi, atamalarni tushunish qobiliyatini oshirib borishi va ularning ma'nosini bilishi shartdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarjima san'ati butun dunyo madaniyati rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va bir tilning barcha jozibasi hamda madaniyatini boshqa tilga ko'chira oladi <sup>[1, 28]</sup>. Agar bu badiiy tarjima bo'lsa, mutarjimdan yanada ko'proq ilhom, mashaqqat va kuch talab qilinadi. Lingvomadaniyat badiiy tarjimaning asosini tashkil etadi. Tarjima, ayniqsa badiiy tarjima haqida so'z ketganda, avvalo uning kelib chiqishi va ushbu so'zga berilgan ta'riflarni keltirib o'tish zarur, deb hisoblaymiz. "Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadimgi Rimda yuzaga kelgan edi", – deydi filologiya fanlari doktori, professor M. Xolbekov o'zining "Jahon adabiyoti" jurnalida chop etilgan maqolasida. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida so'z ketidan quvish yaramasligini, ularning ma'no ifodalarini avval tarozida o'lchab, keyin tarjima qilish ma'qul ekanligini ta'kidlaganlar.

Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada Dyubelle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada esa Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida o'z nazariy tushunchalarini bildirganlar. XX asrgacha "tarjima" so'zi asosan tarixiy, falsafiy va adabiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanilgan, og'zaki tarjimaga esa turkiy tillarda "tilmoch", slavyan tillarida "tolmach", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida esa "interpret" atamalari ishlatilgan. "Tarjima" so'zi "tarjimon" so'zidan hosil bo'lgan bo'lib, "tarjimon" esa fors tilidagi "tarzabon" so'zidan kelib chiqqan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Badiiy tarjima – bu tilni tarjima qilishdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, tarixiy tajribalarni, o'ziga xos dunyoqarashlarni va madaniyatlarni boshqa tilga o'g'irishni o'z ichiga oladi. Lingvomadaniyatshunoslikda ruhiy madaniyat prizmasi orqali tarixiy va zamonaviy lisoniy faktlar tahlil qilinadi. V.A. Maslova kontsepsiyasida bu borada V.N. Teleya ilmiy izlanishlaridan farqli natijalarni ko'rish mumkin. Xususan, lingvomadaniy tadqiqotlarda sinxroniya va diyaxroniya masalalari ham tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, badiiy tarjima – bu ijodiy she'riyat, dramatik va nasrni boshqa xorijiy tillarga o'g'irish jarayonidir. Bu o'quvchining dunyo va uning tarixi, falsafasi, siyosati to'g'risida tushunchasini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy tarjima nima ekanligi to'g'risida gapirar ekanmiz, bu tarjimondan birinchi navbatda ijodiy yondashuvni va tarjima mahoratini talab qiladigan tarjimaning bir turidir.

Badiiy tarjima quyidagilarni tarjima qilishni o'z ichiga oladi:

- Badiiy romanlar;
- Adabiy maqolalar;
- Pyesalar;
- She'rlar;
- Romanlar;
- Qo'shiqlar;
- Dostonlar;
- Qissalar va boshqalar.

So'nggi yillarda til va madaniyat masalalarini lingvokulturologiya fani atroflicha o'rganishga kirishdi. V.V. Vorobyevning yozishicha: "Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin."

Demak, lingvokulturologiya – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini hamda bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır [7,14]. Lingvomadaniyat har bir xalqning faqat bugungi kundagi turmush tarzini emas, balki ularning asrlar davomida saqlanib kelayotgan milliy an'analari, badiiy va ilmiy madaniyati, musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabilarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Har bir aloqa yoki asl xabar amaliy qimmatga ega. Tarjimon xabarning dalillar bayonoti, taklif, buyruq yoki hazil ekanini bilishi lozim. Misol uchun, "Men bilmayman" ("I don't know") iborasi faqatgina bayonot sifatida emas, balki ikkilanish ("Ko'ramiz") degan ma'noni ham anglatishi mumkin. "What gives" – Amerika shevasida "Ishlar qalay?" degan savol mazmunini beradi. Bu tarjima – xabarni lingvistik va madaniy to'siqlar orqali o'tkazish jarayonidir [6,28].

O'zbek lingvomadaniyati uchun ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba'zan kulchaga qiyoslash me'yor hisoblanadi. Inglizlarda esa olchaga, atirgulga (as red as a cherry / rose), xitoy va koreyslarda o'rikka, majnunol novdasiga o'xshatish odat tusiga kirgan.

Xitoy va Koreyada ayollarni ilonga o'xshatish – u yerda ijobiy qabul qilinadi. Chunki mazkur lingvomadaniyatlarda ilon donolik, go'zallik va ephillik ramzi hisoblanadi. Ayni tushuncha turli lingvomadaniyatlarda o'zgacha ifoda vositalari, ya'ni boshqacha o'xshatish etalonlari orqali aks ettiriladi. Masalan, baquvvat kishilarni o'zbeklar filga, inglizlar esa otga qiyoslaydi: filday baquvvat, strong as a horse.

Yoki o'zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnatkash kishilarni chumoliga (chumoliday), turklar esa ariga (ari gibi) o'xshatadilar [6,32]. Leksik birliklar, ya'ni so'zlar, iboralar va frazeologik birliklar tilning asosiy elementlari bo'lib, ular o'z madaniy kontekstida o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Badiiy tarjimada bu birliklarni to'g'ri tushunish va tarjima qilish uchun ularning madaniy kontekstini chuqur o'rganish zarur. So'z yoki leksik birlikning leksik ma'nosini uning ma'lum bir til tizimidagi o'ziga xos qiymati va ushbu tizimda foydalanish orqali egallagan "o'zni" deb hisoblash mumkin [8,12]. Har bir so'z ifodalagan lug'aviy ma'nosi bilan boshqa leksik birliklardan farqlanadi. Tarjimaning asliyatga mazmunan va shaklan mos tarzda yaratilishining yagona sharti tarjimonning o'z tilida monand leksik vositalar tanlab ifoda etishidir. Bu mas'uliyat uning zimmasiga, avvalo, asliyat ma'no va vazifasini bekamu-ko'st tushunish, so'ngra xotirasida shakllangan fikrni o'z ona tili madaniyati va me'yorlari asosida to'la-to'kis ifoda etish vazifasini qo'yadi.

Til vositalari badiiy nutq tarkibida nafaqat o'zlarining moddiy-mantikiy ma'nolaridan mavhumlashib, hissiy-ta'sirchan va badiiy-estetik (obrazli) ma'no va ma'no belgilari kasb etganlarida, balki oddiy muloqot tarkibida dastlabki atov ma'nolarida qo'llanilganlarida ham tarjimon oldiga zaruriy lisoniy vositalarni to'g'ri tanlash borasida qator amaliy mushkulotlarni kundalang qiladi [9,71]. Masalan, inglizcha "for" va uning ruscha lug'aviy ekvivalenti "ради" predloglari barcha lug'atlarda o'zbekchaga "uchun" tarzida berilgan bo'lib, aksariyat matniy holatlarda ularning biri ikkinchisini bemalol almashtira oladi. Ammo "for" (ради) predlogi M. Tvenning "Janna d'Ark" romanida qo'llanilgan "Well, I'll do it for you" [JA, 188] jumlasida "uchun" yordamchisiga xos "foydasi yo'lida" ma'no belgisini aks ettirmasdan, "hurmati uchun" kabi qo'shimcha, lug'atda aks etmagan ma'no belgisini kasb etadiki, bu yerda "uchun"dan foydalanish adekvatlikni ta'minlay olmasligiga ko'zi yetgan tarjimon asliyat ma'nosini aniq ifodalay oladigan "yuzi-xotiri uchun" birikmasini tanlaydi: "Так и быть, сделаю это ради вас – Ж.А., 151 // X.a. Майли, сенинг юзи-хотиринг учун шундай қиламан – ЖА, 140. [9,71]"

Ma'lumki, har bir xalq madaniyatida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular madaniyatlararo tafovutlarni, ya'ni farqli jihatlarni namoyon etadi hamda tarjima jarayonida tarjimonga qiyinchiliklar tug'diradi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi haqida so'z ochar ekanmiz, avvalo qissa oddiy va xalqchilligi bilan ajralib turishi haqida ta'kidlash joiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Badiiy tarjimada lingvomadaniy yondashuv to'g'risida so'z borganda, birinchi o'rinda asl matnni tarjima matniga imkon qadar to'liq va to'kis holatda tarjima qilishni aytamiz. Ammo har qanday matnning lingvistik o'ziga xosligi bo'ladi. Agar tarjimon bu uslub va yo'nalishlarni tarjimada qo'llay olmasa, tarjimada muqobilik saqlanmaydi va bu tarjimonning o'z ijodiy ishiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham tarjimonlar matnlarni to'liq tarjima metodlari va uslublaridan foydalangan holda tarjima qilishlari kerak. Chunki lingvomadaniyatning o'zni badiiy tarjimada nihoyatda beqiyosdir. Umuman olganda, lingvomadaniyatga xos ko'nikma va bilimlarsiz tarjimon



kutgan natijaga erisha olmaydi – bu tabiiy. Lekin badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini hisobga olish tarjimadagi muvaffaqiyat uchun zarurdir. Tarjimonlar madaniyatlararo ko'prik yaratishda asosiy rol o'ynaydi, chunki ular nafaqat so'zlarni, balki madaniy tushunchalarni ham o'tkazadi. Tarjimadagi muvaffaqiyat leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlarini to'g'ri tushunish va ularni moslashtirishga bog'liqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abjalova M., Rashidova U., Abdumuminov B. Matnlarni qayta ishlash manbalari // Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects. – 2022. – T. 1. – № 1.
2. Abjalova M., Rashidova U. (2023). Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD), 7-cilt, 2-sayı, 273–278.
3. Berdiyev H., Rasulov R., Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. – Samarqand, 1978.
4. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa, 2022. – 636 b.
5. Oybek. Qutlug' qon. – Toshkent: "Zukko kitobxon", 2021. – 368 b.
6. Mardiyeva M. Frazeologik birliklarni tarjima qilishning muqobil usullari haqida. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 674–676.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: Qomuslar yosh tahririyati, 1992.
8. Rashidova U. M. Multi-Meaning Somatic Phraseology in the Uzbek Language and Their Stylistic Coloring // Thematics Journal of Social Sciences. – 2021. – T. 7. – № 5.
9. Mardiyeva M. G'ulom asarlarida qo'llangan frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili. Educational Research in Universal Sciences, 6 (ISSN: 2181-3515), 105–109.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.